

QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

2025-YIL
14-15 MART

GIDROTEXNIKA QURILISHI VA GIDROENERGETIKANING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

TO‘PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

GIDROTEXNIKA QURILISHI VA GIDROENERGETIKANING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

(Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to’plami)

14-15 mart 2025 yil

Qarshi-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Chellamuthu M., Subramanian S., Swaminathan M. Genetic Potential and Possible Improvement of Sesamum indicum L //Nuts and Nut Products in Human Health and Nutrition. – IntechOpen, 2020.

2. Daniya E. et al. Correlation and path analysis between seed yield and some weed and quantitative components in two sesame (Sesamum indicum L.) varieties as influenced by seed rate and nitrogen fertilizer. – 2013.

3. Ibrahim S. E. et al. Genotypic correlation and path coefficient analysis of yield and some yield components in sesame (Sesamum indicum L.) //Int. J. Agri. Sci. – 2012. – Т. 2. – №. 8. – С. 664-670.

4. Alake C. O. et al. Selection criteria for Nigerian sesame (Sesamum indicum L.) genotypes //Journal of Tropical Agriculture. – 2010. – Т. 48. – №. 2. – С. 49-51.

QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLAR VA EKIN MAYDONLARIDA MONITORING ISHLARINI AMALGA OSHIRISH

Muazzamov Navro‘z Faxriddin o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. O’zbekiston respublikasida yer umummilliy boylik sifatida alohida e’tirof etiladi. Shunday ekan uning nazorati va boshqaruv tizimlari davlat tomonidan turli huquqiy, normativ me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Respublikadagi yer borasidagi boshqaruv va nazorat tizimi esa yer monitoringini yuritish asosida quriladi.

Kalit so‘zlar: Yer monitoringi, nazorat tizimi, kuzatuv, respublika monitoringi, mintaqaviy monitoring, mahalliy monitoring, yer monitoringining kichik tizimlari.

Аннотация. В Республике Узбекистан земля признана национальным достоянием. Поэтому его системы контроля и управления реализуются государством на основе различных нормативно-правовых документов. Система землеустройства и контроля в республике строится на основе мониторинга земель.

Ключевые слова: Мониторинг земель, система контроля, наблюдение, республиканский мониторинг, региональный мониторинг, локальный мониторинг, малые системы мониторинга земель.

Abstract. In the Republic of Uzbekistan, land is recognized as a national wealth. Therefore, its control and management systems are implemented by the state on the basis of various legal and regulatory documents. The land management and control system in the republic is built on the basis of land monitoring.

Key words: Land monitoring, control system, surveillance, republic monitoring, regional monitoring, local monitoring, small systems of land monitoring.

Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va yer fondi toifalariga muvofiq bo‘lgan quyidagi kichik tizimlarga bo‘linadi:

qishloq xo‘jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;

aholi punktlari yerlari monitoringi;

sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;

tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsion maqsadlardagi yerlar monitoringi;

tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi;

o‘rmon fondi yerlari monitoringi;

suv fondi yerlari monitoringi;

zaxira yerlar monitoringi.

Respublikada yer monitoringining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

yer fondi holati o‘zgarishlarini o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga doir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta’minlash.

Hududiy qamrab olinishiga ko‘ra yerlarning respublika, mintaqaviy va mahalliy monitoringi amalga oshiriladi.

Respublika monitoringi O‘zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab oladi.

Mintaqaviy monitoring fizik-geografik, ma’muriy va boshqa chegaralar bilan chegaralangan hududlarni qamrab oladi.

Mahalliy monitoring alohida yer uchastkalari va manzara-ekologiya komplekslarini qamrab oladi.

Yer monitoringi mazmuni yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv)dan, quyidagilar o‘zgarishlarini aniqlash, baholash va prognozlashdan iborat bo‘ladi:

yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara-ekologiya komplekslarining holati;

erlar unumdorligining o‘zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasi (aridizatsiya va cho‘llanishi, suv, irrigatsiya va shamol eroziyasi, chirindi miqdori o‘zgarishi, tuproq tarkibining o‘zgarishi, ohakliligi, begona o‘t bosganligi, sho‘rlanganligi, qishloq xo‘jaligi yerlarining o‘t bosganligi, yerlarning pestitsidlar, og‘ir metallar, radionuklidlar va boshqa toksik moddalar, sanoat, maishiy va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi)ga ta’sir qiluvchi jarayonlar (omillar);

tabiiy ozuqabop o‘tlar qoplami holatining o‘zgarishi (o‘simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to‘yimliligining o‘zgarishi) bilan bog‘liq jarayonlar;

daryolar qirg‘oqlarining, Orol dengizi, ko‘llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika inshootlarining holati;

jarliklar va o‘pqonlar, o‘pirilishlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari, “degishlar”, karst, yer cho‘kishi, boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo‘lgan jarayonlar;

aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go‘ngxonalar, axlatxonalar, yonilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar omborlari, toksik sanoat chiqindilari va radioaktiv materiallar ko‘milgan joylar, shuningdek boshqa sanoat obyektlari yerlarining holati.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari — texnik ekinlar (g‘o‘za, kanob, kannabis, tamaki, supurgi), boshoqli don ekinlari (bug‘doy, arpa, makkajo‘xori don uchun, oq jo‘xori, sholi, tariq, suli, javdar), sabzavot (pomidor, bodring, piyoz, sabzi, karam, baqlajon, qalampir, sarimsoqpiyoz, osh lavlagi, turp, sholg‘om, ko‘katlar), poliz (qovun, tarvuz, oshqovoq), kartoshka, moyli ekinlar (kungaboqar, soya, yer yong‘oq, kunjut, zig‘ir, masxar), dukkakli ekinlar (no‘xat, loviya, mosh), ozuqa ekinlari (beda, makkajo‘xori silos uchun, xashaki lavlagi, bir yillik o‘tlar (raps, perko, tritikali, sudanka), rezavor ekinlar (qulupnay, malina) va boshqalar;

qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringi — ekinlarni joylashtirish ko‘rsatkichlari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarni o‘lchash, shuningdek, ekin maydonlarida o‘tkaziladigan erga ishlov berish bilan bog‘liq agrotexnik tadbirlarning o‘z muddatlarida bajarilishi yuzasidan kuzatuv olib borish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringi — mulkchilik shaklidan qat’i nazar, yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda, jumladan, haydaladigan ekin yerlari, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlar, pichanzor va yaylovlar, shuningdek, ularga xizmat qiluvchi boshqa yer turlarining (ariq, zovur, yo‘l va boshqalar) holati bo‘yicha kuzatuv tizimi (fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalari bundan mustasno);

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ushbu maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar (sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar egallagan yerlar).



1-rasm Ekin yerlarning monitoring qilishda uchuvchisiz uchish qurilmasi yordamida olingan surat.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi mulkchilik shakli, huquqiy rejimi, xususiyati va foydalanish muddatlaridan qati nazar, yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda amalga oshiriladi va ular monitoring obyekti hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik), uning hududiy bo‘linmalari hamda “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti (keyingi o‘rinlarda — “O‘zdavyerloyiha” instituti) va uning hududiy bo‘linmalari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirishda vakolatli davlat organlaridan yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, yer uchastkalari chegarasi hamda holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bepul asosida oladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi ushbu yerlarning tuproq, geobotanika va boshqa tadqiqotlar materiallaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekinlarni monitoring qilish orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari va tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlari, shuningdek, “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qishloq ho‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning turlari bo‘yicha ularning maydoni va ushbu yerlardan foydalanish holati yuzasidan monitoring tizimini tashkil etish va amalga oshirish;



2-rasm Ekin yerlarning monitoring qilishda uchuvchisiz uchish qurilmasi yordamida olingan surat.

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan belgilangan maqsadlarda foydalanilishini ta’minlash;

yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish holatlarining oldini olish va aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli choralar ko‘rish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha vakolatli idoralarni axborot bilan ta’minlash.

Xulosa: qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida amalga oshirish.

Adabiyotlar ro’yhati

1. Yer manitoringi o‘quv qo‘llanma R.A.Turayev 2022 yil
2. Xudoyberdiyev, F. Sh., Bobojonov, S. O‘, & Muxamadov, Q. M. O‘. (2022). Markaziy osiyo mamlakatlarida chiqindi obyektlarini boshqarishning bugungi holati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 967-976.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

	bo‘limini oq‘itish metodikasi.	
18	***G’ulomov Oybek G’ayratovich*, *Nazarov Abdulla Abduvaxob o’g’li, Hazratqulov Yusuf Allanazarovich, Qambarov Raxmonali Asqaraliyevich, Irrigatsiya suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi Surxondaryo mintaqaviy markazi***. Tomchilatib sug'orish tizimi quvurlaridagi bosim yo'qolishlari tahlili.	413
19	**G’ulomov Oybek G’ayratovich, Nazarov Abdulla Abduvaxob, Hazratqulov Yusuf Allanazarovich, Irrigatsiya suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi Surxondaryo mintaqaviy markazi direktori. Qodirov Najmiddin Elmirza o’g’li, “TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti stajyor o’qituvchisi.** Tomchilatib sug'orish tizimlarining gidravlik parametrlari tadqiqoti.	416
IV-SHO‘BA. TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH, QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR. ***Sho‘ba raisi:*** *q.f.f.d (PhD) A.M.Abdiazimov.* ***Ilmiy kotib:*** *B.Aralov*		
1	**Хазраткулова Шахноза Усмоновна, Дилмуродов Шерзод Дилмуродович.** Қарши Давлат техника университети. Кузги юмшоқ буғдойнинг янги маҳаллий тизмаларида маҳсулдорлик ва дон сифати кўрсаткичларини баҳолаш.	421
2	**Хазраткулова Шахноза Усмоновна, Дилмуродов Шерзод Дилмуродович.** Қарши Давлат техника университети. Юмшоқ буғдойни ривожланиш фазалари давомийлигини ўрганиш асосида эртапишар тизмаларни танлаш.	433
3	**А.Тўхтақўзиев, А.Р.Расулжонов.** ҚХМИТИ, Тупроққа ишлов бериш машиналарининг ишлов бериш чуқурлиги ва унинг барқарорлигини назоратлайдиган ва бошқарадиган қурилмалар.	439
4	**Азизов Бекзод Ғайрат ўғли.** Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти. Баҳорги буғдойнинг фазалар ўртасидаги умумий ҳаво ҳарорат йиғиндиси.	444
5	**Амирқулов Отабек Сайдуллаевич.** Қарши давлат техника университети. Буғдой ўсимлиги зарарли организмларига қарши Самарали ҳимоя.	447
6	**Амирқулов Отабек Сайдуллаевич**. Қарши давлат техника университети. Кузги бошоқли дон экинлари ҳосилига зарар етказадиган зарарли организимларга қарши кураш.	450
7	**Б.Ш. Бойбулов. Р.Г.Пардаев. Ғ.Қўзибоев. М.Бухарова.** Чорвачилик ва паррандачилик илмий-тадқиқот институти. Бўғоз сигирларни тўла қийматли озиқлантириш натижасида соғлом бузоқлар олиш.	455
8	**Quyliev Nurislom Davronovich**. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot istituti. Tritikalining 1000 dona don vazni hamda don sifat kursatgichlari taxlili.	459
9	**Д.Н.Бекназаров**. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot istituti. Сидерат жавдар ўсимлигининг ўсиши ривожланиши тупроқ унумдорлгига таъсири.	461
10	**Sodikov Mansur Kaxxorovich, Ergashev Laziz Bekmurodovich**. Qarshi davlat texnika universiteti. Sanoat korxonalari piroliz jarayoni ikkilamchi xom ashyosi asosidagi sintezlar.	464
11	**Дилмуродов Шерзод Дилмуродович.** Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти. Дурагайлаш учун кузги юмшоқ буғдойни қурғоқчиликга чидамли донор навларни танлаш.	467

12	**Dilmurodov Sherzod Dilmurodovich.** Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. Qattiq bug‘doy navlarini birlamchi urug‘chiligi.	473
13	**D.Begimqulova.** Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. Yumshoq bug‘doyning vegetatsiya davriga ildizdan tashqari mikro va makro elementlarning ta’siri.	470
14	**Abdiyev Anvarjon Almirzayevich, Jo‘rayev Shohjahon Karimovich**. Qarshi davlat texnika universiteti. Tuproqning namlanish chuqurligini aniqlash.	484
15	**Abdiyev Anvarjon Almirzayevich, Jo‘rayev Shohjahon Karimovich.** Qarshi davlat texnika universiteti. Sug‘orish meyorini no‘xat don hosildorligiga ta’siri.	490
16	**Ergashov Zuhriddin Jo‘raevich, G‘afforova Dilshoda Ikromjon qizi.** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda organik dehqonchilikdan foydalanish istiqbollari.	495
17	**Narmanov Zafar Qo‘ziboyevich**. Qarshi davlat texnika universiteti. Yerdan unumli foydalanishning ayrim muammolari va ularning yechimi.	498
18	**Yuldosheva Yulduz Shuhrat qizi.** Qarshi davlat texnika universiteti. Rivojlangan davlatlarda yer resurslarini boshqarish uslublari.	504
19	**Ziyotov Ulug‘bek Amirqul o‘g‘li.** Qarshi davlat texnika universiteti. Yerlarning kadastr qiymatini baholash.	508
20	**Ziyotov Ulug‘bek Amirqul o‘g‘li.** Qarshi davlat texnika universiteti. Yer resurslarini boshqarishda monitoring olib borish tartibi.	511
	Xidirova Barno Bahodir qizi. Yer tuzishni loyihalashni vtomatlashtirish	513
21	**Xidirova Barno Bahodir qizi.** Qarshi davlat texnika universiteti. Yer resurslarini boshqarishda davlat nazorati.	517
22	**Narmanov Zafar Qo‘ziboyevich, Xidirova Barno Bahodir qizi**. Qarshi davlat texnika universiteti. Yer resurslarini boshqarishda Davlat nazorati.	521
23	**Hasanov Ulug’ Ibrohimovich.** “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti. Takomillahtirilgan chuquryumshatkichli plugning iskanasimon yumshatkichini tortishga qarshiligini aniqlash.	526
24	**To‘xtaqo‘ziyev A. Tangirov I.U.** Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot insituti. Ishlov berilmagan tuproqqa urug‘ ekishda no-till texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari.	531
25	**Dilnoza Shavkatova, Yo’ldoshova Shirin.** Shahrisabz davlat pedagogika instituti. Preparation of sulphur concrete using modified sulphur and melamine.	534
26	**Bobomurodova Shoxsanam Shavkat qizi**. "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi.	543
27	**Otamurodova Gavhar Murodullayevna.** Shahrisabz davlat pedagogika instituti qoshidagi Akademik litsey. Elementar oltingugurtni aromatik birikmalar asosida modifikatsiyalash.	547
28	**Amanov Amir Amanovich**, **Nortojiyev Sunnatillo Farhod o‘g‘li, Abdimajidov Jaloliddin Raxmatillo o‘g‘li.** Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. Ko‘p yillik bug‘doy nav va namunalarida mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining tahlil natijalari.	553
29	**Poyonov Azizbek.Berdimuradovich**. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. Moyli zig’ir nav va tizmalarining bir biriga korrelyativ bog‘liqligi.	556

30	**Norov Ilxom Chori o‘g‘li, Amanova Maxfurat Eshmurodovna**. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institute. Kunjut (sesamum indicum.l) nav va namunalarining don hosildorlik ko‘rsatkichiga 1000 dona don vaznini ta’siri.	562
31	**Muazzamov Navro‘z Faxriddin o‘g‘li.** Qarshi davlat texnika universiteti. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish.	566
32	**R. Matqosimova.** Andijon davlat texnika instituti. Paxta tozalash zavodiga kerakli xom ashyo bazasini tahlil qilish.	571
33	**Rasulov Ne’mat Shokir o‘g‘li.** Qarshi davlat texnika universiteti. Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida xaritalash metodologiyasini takomillashtirish.	575
34	**Ataullayev J.R**. Qarshi davlat texnika universiteti. Geodezik usullarda qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniqlash.	580
35	**Б.В.Хушвақтов, С.Ғ.Суюнов, Ш.Н.Барлибаев.** Қхмити. Комбинациялашган машина ротацион иш органининг диаметрини унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш.	588
36	**To‘xtaqo‘ziyev Abdusalim, Olimov Hamid Haydarovich.** QXMITI, BuxDTU. G‘o‘za bostirib sug‘oriladigan hududlarda ko‘ndalang pollarni hosil qilish va buzishni mexanizatsiyalash.	592
37	**Qodirov Isomiddin Eshmo‘minovich, Urinov Jamol Chorshanbiyevich, Kemal Beyhan**. Qarshi davlat texnika universiteti. Qashqadaryo viloyatining koson va muborak tumanlarida ichimlik suvi inshootlarini modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish.	596
38	**Mamashayeva Shoxsanam Rovshan qizi, Meyliyev Akmal Xushvaqtovich**. Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti. Afrika tarig’i o’simligining biometrik ko’rsatkichlari.	602
39	**Келдиёров Рафиқ Нормуродович, Рахимов Рахмон Тулқин ўғли.** Qarshi davlat texnika universiteti. Ғўза қатор ораларига ишлов беришнинг аҳамияти ва унга қўйиладиган асосий агротехник талаблар.	605
40	**Келдиёров Рафиқ Нормуродович, Абдураимов Жасур Жалол ўғли**. Қарши давлат техника университети. Кузги донли экинлардан бўшаган тупроқларнинг хусусиятлари.	608
41	**J.Ataullayev.** Qarshi Davlat texnika unversiteti. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish.	612
42	**Jo‘raev Sirojiddin Turdiqulovich, Jumanova Mahliyo Boboqulovna.** Toshkent davlat agrar universiteti. Fasol nav va tizmalarining vegitatsiya davri davomiyligi.	616
43	**Бахрамова Нилуфар Назаровна, Жуманова Махлиё Бобоқуловна, Равшанова Феруза Аллаёровна.** Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти. Рыжик навларини экиш меъёрлари ва қимматли хўжалик белгиларига боғлиқлиги.	620
44	**Jalg‘asbaev Arzubay Biysenbay o‘g‘li.** Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти. Yumshoq bug‘doyning roqobatli nav sinash ko‘chatzori genotiplarida o‘suv davri davomiyligi.	623
45	**Ismoilov Abbos Akmal o‘g‘li.** Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti. Raqobatli nav sinash ko`chatzorida yasmiqning o‘suv davri davomiyligi.	628
46	**Safarov Fayzali Saminqulovich, Ergashev Hasan Baxtiyor o’gli.**	633